

## XORAZM VOHASI HUNARMANDCHILIGINING KELIB CHIQISH TARIXI VA BUGUNGI HOLATI

**Matyoqubov Xolbek Shonazarovich**

*Ichan qal'a davlat muzey qo'riqxonasi "Xorazm hunarmandchilik tarixi" bo'lim mudiri*

**Annotatsiya:** *Maqolada mualliflar tomonidan Xorazm vohasi hunarmandchiligining qadimgi davrlardagi tarixi va bugungi kundagi holati haqida ma'lumotlar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Buyuk ipak yo'li, Xorazm, Avesto, Orol, Amudaryo, O'zbekiston, hunarmandchilik, kulolchilik, kasanachilik, bozor turizmi.*

**АННОТАЦИЯ:** *В статье авторы предоставляют информацию об истории ремесел Хорезмского оазиса в древности и их современном состоянии.*

**Ключевые слова:** *Великий шелковый путь, Хорезм, Авеста, Арал, Амударья, Узбекистан, ремесла, гончарное дело, товары для дома, рыночный туризм.*

**Annotation:** *In the article, the authors provide information about the history of Khorezm oasis crafts in ancient times and their current state.*

**Keywords:** *The Great Silk Road, Khorezm, Avesta, Aral, Amudarya, Uzbekistan, handicrafts, pottery, household goods, market tour*

Bugungi kunda jahonda xalqlarning o'zaro integratsiyalashuvi va iqtisodiyotda globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan bir davrda milliy o'zlikni anglash, etnomadaniy an'analar va qadriyatlarni saqlab qolish, ularni ilmiy asosda tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda milliylikning ahamiyati o'sib, jahon xalqlari orasida o'z tarixi va milliy madaniyatiga bo'lgan qiziqishning keskin ortganligining sababi ham shunda desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bugun o'zbek xalqining ko'hna va boy tarixini chuqur o'rganish hamda haqqoniy ko'rsatib berish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix va etnologiya fanlari oldiga ilgari to'plangan ilmiy bilimlarni tanqidiy ravishda qayta tahlil etish uchun yangi uslubiy va konseptual yondashuvlarni belgilash vazifasi ham qo'yildi. Bu jihatdan o'ziga xos etnografik mintaqalarning turli davrlaridagi tarixi, etnografiyasi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi yangilanish jarayonlarini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda milliy meros va qadriyatlarga munosabat, aholi turmush tarzi va xo'jalik faoliyatida yaratilgan betakror san'at asarlarini bugungi kundagi ahamiyatini o'rganish, qayta tiklash va tarixiy madaniy merosni yosh avlodga yetkazish, hunarmandchilik markazlari tarixini yoritish va tahlil etish mavzulariga alohida urg'u berilmoqda.

O'zbek xalqining hunarmandchilik madaniyati o'ziga xos qadimiy an'analarga ega bo'lib, mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida salmoqli o'rin egallaydi. Hunarmandchilik insoniyat ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelgan bo'lib, o'z taraqqiyoti davomida takomillashib, to'qimachilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, kulolchilik, yog'ochga ishlov berish, kandakorlik, temirga ishlov berish, toshtaroshlik, zargarlik, duradgorlik, zardo'zlik, ko'nchilik, o'ymakorlik va boshqa turli xil ixtisosliklarga ajralgan.

O'zbekistonning shimolidagi eng katta vohasi hisoblanmish Qadimiy Xorazm Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashganligi sababli o'ziga xos etnografik hududlari hisoblanib,

qo'shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shimoliy voha hunarmandchiligi rivojlanishi va taraqqiy etishida shahar va hududlar o'ziga xos lokal xususiyatlarga ega bo'lib, bir qator markaz va maktablarning vujudga kelishiga olib kelgan.

Geografik jihatdan Qadimiy Xorazm janubda Darg'onotadan tortib, shimolda Orol dengizigacha, sharqda qadimgi janubiy Oqchadaryo deltasi orqali sug'oriladigan yerlardan tortib, Janubiy Sariqamish botig'i va g'arbda Uzboyning yuqori qismigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan Quyi Amudaryo hududi vohasidir. Amudaryo bu hududni O'ngqirg'oq va Chapqirg'oq Xorazmga bo'ladi. Ular bir-biridan tabiati va tarixiy-madaniy jihatlari bilan farq qiladi. Xorazm vohasining barcha tomonlari sahro bilan o'ralgan, janubda Qoraqum g'arbda Qizilqum, sharqda Orol-Kaspiy saholari bilan o'ralgan bo'lib, shimolda Orol dengizi bilan chegaralanadi. Iqlimi keskin kontenental, quruq, yillik yog'in miqdori kam, havoning sezilarli quruqligi va kuchli shamollar kuzatiladi. Tabiat omillari sun'iy sug'orishsiz dehqonchilikni amalga oshirishga imkon bermaydi [1].

Manbalarning guvohlik berishiga qaraydigan bo'lsak, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning oxirlarida Xorazm jadal iqtisodiy va madaniy yuksalishni boshidan kechirdi. Amudaryoning quyi etaklaridagi markazlashgan jarayonlar mazkur hududda ichki bozorning shakllanishini tezlashtirdi. Xorazmda moddiy madaniyatning bir xil ko'rinishga ega bo'lganligiga sopol idishlarning yuqori darajada standartlashganligi guvohlik beradi. O'sha davrda Xorazmlik kulollar ba'zi kulolchilik buyumlari birinchi navbatda uy-ro'zg'or buyumlariga shakl berib ishlashda idish hajmining ma'lum bir qismini tashkil etgan belgilangan standartga amal qilingan deb hisoblash uchun barcha asoslar mavjud. [2].

Qadimiy Markaziy Osiyo xalqlarining tabaqalanishi to'g'risida Avestoda yetarlicha ma'lumotlar keltiriladi. Ularning eng aniq ro'yxati kichik Avestoda qayd etiladi. Ular bu yerda pishtra, ya'ni mashg'ulot kasb deb nomlangan. Ular uchta atravon-ruhoni, raytashtar-jangchi, vastrafshuanyt-dehqon, keyinchalik to'rtinchisi qo'shiladi, bu huti ya'ni hunarmand deyiladi [3].

Avesto matnlarida tilga olingan erkin aholining to'rtinchi toifasi hutilar ya'ni hunarmandlar bo'lgan. Mazkur davrda Xorazmda hunarmandchilik yuksak taraqqiyot darajasiga erishgan edi. Bizda bu yerlarda yuqori darajada rivojlangan tovar hunarmandchilikka asoslangan kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish va turli birlashmalarga uyushgan hunarmandlarning ko'p sonli ijtimoiy qatlami mavjud bo'lganligi haqida gapirish uchun barcha asoslar bor. Charmanyop vohasi Govurqal'a yaqinidagi kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish joyi yuqorida tilga olingan ustaxonalardan bo'lishi mumkin [4].

Qadimgi Xorazm arxeologik majmuyi faqat Amudaryoning quyi qismida Xorazm hududida tarqalgan edi. Xorazm vohasi hududlarida hunarmandchilik buyumlari shu jumladan, idish buyumlari yasashda yagona standart qo'llanilgan. Olimlar Xorazmda mil.avv. birinchi ming yillikning so'nggi choragida pul muomalasi bo'lmagan degan fikrga kelganlar. Har holda arxeologik qazishmalarda o'sha davrga oid birorta tanga topilmagani sababli, Xorazm davlatining ichki bozorida natural tovar ayirboshlashga amal qilinishini anglatar edi. Bunday holatda bozorning me'yorida ishlashi uchun tovarlar almashinuvida har jihatdan teng bo'lib xizmat qiladigan hajm va vaznning yagona o'lchovlari zarur bo'ladi.

Xorazmda o'sha davrda bunday hajm birliklari ehtimol, suyuq va sochilib ketishi mumkin

bo'lgan mahsulotlar tashilgan dastasiz katta ko'zalar bo'lgan bo'lishi mumkin. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning ikkinchi yarmida Xorazmda birinchi sug'orish tizimlarini yaratilishi, xom g'ishtdan qilingan qurilish, yuqori texnologiyali hunarmandchilikning, ayniqsa kulolchilikning paydo bo'lishi o'sha davrda o'lkaning shaharlashuv jarayoni boshlanganidan guvohlik beradi [5].

Xorazm hududi juda qadim zamonlardan turli hunarmandchilik sohalari rivoj topgan o'lka edi. Buni turli o'rta asr mualliflarining fikrlari ham isbotlaydi. Xususan, Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Xorazm haqida X asrda al-Muqaddasiy uning juda ko'p shaharlar, bog'lar daraxtzorlar va ekinzorlarga ega ekanligi, bu yerda uzum sharbati ishlab chiqaradigan qurilmalar borligini eslatib o'tadi [6].

Xorazm turli hunarmandchilik sohalari rivoj topgan hudud ekanligini mo'g'ullar bosqiniga qadar Xorazm tasvirlangan muallifi noma'lum "Ta'rifi Xorazm" asari ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Unda, Xorazm mamlakatida 60 yerda bozor bor. O'n ming qassob, o'n ming baqqol, o'n ming bazzoz, sakkiz ming attor, yigirma ming muzado'z (etikdo'z), olti ming kavushdo'z do'koni, besh ming rangrez (bo'yoqchi) do'koni, sakkiz ming oxangar (temirchi) do'koni, uch ming misgar do'koni, uch ming zargar do'koni, ming besh yuz sarroj (egar-jabduq yasovchi) do'koni, sakkiz ming jo'vozdon (paxta chigiti, kunjut, zig'irdan yog' ishlab chiqaruvchi jo'voz) do'koni, o'n ming qaffol (qulufsoz), besh ming sobungar do'koni, besh ming do'zod, uch ming xarrot, besh ming charmgar do'koni, besh ming xamir manh (xamirdan tayèrlangan mahsulotlar) do'koni, ming koshchin tuzataturgon (koshinpaz do'kon ustaxona), ming besh yuz uylik dutorg'a xarak qilur erdi, ming charhg'a o'qcha ulur otib, nahga (ip yigirish uchun) tuzataturg'on, ming chaxuzna'l (otlar tuyog'iga qoqiladigan na'l-taqa bo'lishi mumkin) deb qayd etiladi [7].

O'zbekiston mustaqilligi tufayli o'zbek xalqining milliy qadriyatiga aylangan, inson tafakkurining buyuk yutug'i hisoblangan, asrlar davomida sayqal topib, bebaho san'at asari darajasida taraqqiy etib kelgan an'anaviy hunarmandchilikni qayta tiklash, hunarmandlarga g'amxo'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada tub islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston Respublikasi hukumati barcha sohalarda jamiyatni yangilashning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ko'rsatib berdi. Bu yo'l ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga jahon tajribasi, shuningdek, xalqimiz turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, tarixiy qadriyatlarini har tomonlama hisobga olingan va mahalliy aholining manfaatlariga to'la mos tushadigan taraqqiyot yo'lidir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlarining muvaffaqiyati, eng avvalo mulkiy munosabatlarning o'zgarishi, turli xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanishi va buning uchun davlat bosh islohotchi sifatida iqtisodiy imkoniyatlar yaratib berilayotganligi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martda qabul qilingan "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni Respublikada o'tmishdan qolgan xalq hunarmandchiligi turlarini qayta tiklash va zamonaviy qiyofada ishlab chiqarish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilganligining ifodasi bo'ldi. 2008-yil 1-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" Farmoni qabul qilindi. Yana bu borada 2010-yil 30-martda "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy

san'atini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi.

Bugungi kunda ham ba'zi xalq amaliy san'ati turlari – milliy kashtachilik, ganchkorlik, zardo'zlik, kulolchilik, pichoqchilik, kandakorlik, zargarlik va boshqalar aholi kundalik turmishida o'z o'rnini yo'qotmagan. Ayrim hunarmandchilik turlari oilaviy an'anaga ko'ra davom ettirilmoqda. Shu munosabat bilan 2012-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida» gi qonuni e'lon qilindi. Shundan keyin oilaviy biznes va hunarmandchilik sohasi yanada rivojlana boshladi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga islohatning dastlabki kunlaridan zarurat tug'ilgan bo'lsa, uning negizida Xorazm milliy hunarmandchiligi asrlar davomida milliy urf-odatlar va qadimiy an'analarga tayangan holda rivojlanib kelayotganligini nazarda tutmoq lozim bo'ladi. Shu bois, Respublikamizda shu jumladan Xorazm vohasida ham qadimiy tarixga ega bo'lgan hunarmandchilik sohasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, bozor turizmi ko'rinishlarida yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

Bugungi kunda hunarmandchilik aholining aniq talablaridan kelib chiqib, aholi yoki xo'jalik subyektlarining uy-ro'zg'or, estetik va boshqa ehtiyojlarini qondirish maqsadida yakka buyurtma asosida kam sonli lekin o'ta sifatli hunarmandchilik mahsuloti hamda tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning bir ko'rinishidir, shuningdek milliy, an'anaviy va mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mexnatiga asoslangan sanoat turi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda o'tmishi uzoq mingyilliklarga borib taqaladigan hunarmandchilik sohasi insoniyat rivojlanish davridan to bugungi kungacha doimo uning hamrohi, turmush tarzi va tirikchilik manbayi shuningdek aqliy tafakkuri hosilasi bo'lib kelgan. Hatto hunarmandchilik sohasi bo'lmaganda ayrim hudud aholisining qirilib, yashab qolishi ham savol ostida qolishi mumkin bo'lar edi deb tahmin qilish ham mumkin. Chunki har bir hunarmandchilik mahsuloti albatta uy-ro'zg'or anjomlari va buyumi bo'ladimi, hayotini saqlab qolish uchun o'zini himoya qilish vositasi ya'ni kiyim-bosh, qurol-aslaha bo'ladimi, avlodini ko'paytirish ularni sog'lom saqlash va turli balo-qazolardan himoya qilish vositasi bo'ladimi barchasi asrlar davomida albatta hayotiy muhim zaruriyat bo'lib kelgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья.М.1969г. Стр 95-96
2. Болелов С.Б. К вопросу о стандартизации средноазиатской керамики в древности. С.108.
3. Пьянков И. В. Социальный строй древноземледельческих народов Ср. Азии. Источники История культура М.2005 с.602-603
4. Болелов С. Б. Гончарные производства древнего Хорезма С 116.
5. Вайнберг Б. И. Техника изготовления культовых сосудов второй половине до н.э.в Хорезме. Москва.2009 стр 144-145.
6. Иброхимов.Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёхати. Тошкент. 1993й. Б.-19.
7. Таърифи Хоразм. Ўз.Р.ФА ШИ. №6895/IX рақамли қўлёзма 150-151 варақ.